

G‘ARB VA SHARQ ADABIYOTIDA INSONNING MAG‘LUBIYATDAGI G‘ALABASI (“CHOL VA DENGIZ” VA “JIMJITLIK” ASARLARI MISOLIDA)

Akbarxon ASROROV

dotsent

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Samarqand, O‘zbekiston

Odina ERGASHEVA

Talaba

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada G‘arb va Sharq adabiyotida insonning mag‘lubiyatdagi g‘alabasi masalasi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” va Said Ahmadning “Jimjitlik” romanlarida qahramonlarning zohiriy mag‘lubiyati hamda ruhiy g‘alabasi badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Shuningdek, insonning sabr, iroda va ma'naviy qudratini namoyon etishini ifoda qiluvchi mushohadalar o‘rtaga tashlanadi. G‘arb va Sharq adabiyotida zohiriy tashqi yengilish farq qilsa-da, ruhiy g‘alaba mohiyati bir xil bo‘lib, bu insonning ichki kuchi va ruhiy yuksalishi orqali namoyon bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar: mag‘lubiyat, g‘alaba, inson ruhiyati, Xeminguey, Said Ahmad, G‘arb va Sharq adabiyoti.

ПОБЕДА ЧЕЛОВЕКА В ПОРАЖЕНИИ В ЗАПАДНОЙ И ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «СТАРИК И МОРЕ» И «ТИШИНА»)

Акбархон АСРОРОВ

Доцент

Ургутский филиал Самаркандского государственного университета

Самарканд, Узбекистан

Одина ЭРГАШЕВА

Студент

Ургутский филиал Самаркандского государственного университета

Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема победы человека в поражении в западной и восточной литературе с точки зрения литературоведения. В качестве объектов исследования выбраны произведения Эрнеста Хемингуэя «Старик и море» и Саида Ахмада «Тишина». В статье анализируются внешние поражения и внутренние

духовные победы героев, их отражение через художественные средства, а также проявление человеческого терпения, воли и нравственной силы. Результаты анализа показывают, что, хотя формы внешнего поражения различаются в западной и восточной литературе, сущность духовной победы одинакова и проявляется через внутреннюю силу и духовное возвышение личности.

Ключевые слова: поражение, победа, человеческая психика, Хемингуэй, Саид Ахмад, западная и восточная литература.

Insoniyat tarixida magʻlubiyat va gʻalaba tushunchalari doimiy ravishda adabiy asarlarning asosiy mavzusi boʻlib kelgan va u orqali voqelik badiiy inʻikosini yanada teranroq aks etganligiga koʻp bor guvoh boʻlganmiz. XIX va XX asr Gʻarb va Sharq adabiyoti esa bu mavzuni turlicha badiiy talqin qiladi. Xususan, Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” romanida insonning tashqi kuchlar, yaʼni tabiat bilan kurashi va shu orqali ruhiy gʻalabaga erishishi markaziy mavzu sifatida tasvirlanadi. Ernest Xeminguey falsafasida insonni haqiqiy buyuk qiladigan narsa natijadan koʻra kurashning oʻzi boʻlib, tashqi yengilish ichki gʻalabaga toʻsqinlik qilmaydi. Isteʼdodli oʻzbek yozuvchisi Said Ahmadning “Jimjitlik” romani insonning ichki dunyosi, sukut va sabr orqali magʻlubiyatni yengish jarayonini koʻrsatadi.

Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida qahramonning jimligi tashqi dunyoga yuzlanmagan ichki kurash sifatida namoyon boʻlib, ruhiy chidamlilik va ichki gʻalabani ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, Xeminguey va Said Ahmad asarlari Gʻarb va Sharq adabiyotida insonning magʻlubiyatdagi gʻalabasini badiiy talqin qilishi bilan ahamiyatli boʻlib, ularda ikkala adabiy makondagi insoniy iroda, sabr-toqat va ruhiy chidamlilik, ularning umumiy va oʻziga xosligini bilan birgalikda inson ruhiy qudratining anglanmagan mohiyati yoritiladi. “Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib boʻlmaydi” ushbu mashhur jumla koʻpchilikka tanish. Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asaridan olingan parcha asarning butun bir maʼno va gʻoyasini qamrab oladi. Odamni yanchib tashlash deganda jismi nazarda tutilgan. Uni bir lahzada yanchish, tilka-pora qilish

mumkin, ammo ruhini, irodasini yengish oson emas, deyarli imkonsiz. Chunki inson zoti yengilishni qabul qilolmaydi. Harakatdan, yengish sari odimlashdan to‘xtamaydi? To‘xtolmaydi.

Ernest Xeminguey (1899–1961) o‘zining “Chol va dengiz” (1952) romanida insonning tabiat oldidagi kuchi, irodasi va sabr-toqatini ramziy tarzda ko‘rsatadi. Qahramon – qari baliqchi Santyago – uch kun davomida dengizdagi ulkan marlin (baliq-turi) bilan kurashadi. Uning bu jarayondagi jismoniy yengilishi, aslida, uning ruhiy g‘alabasiga olib keladi. Yozuvchi insonni hayot sinovlari oldida sinmaslikka, mag‘lubiyatni g‘alabaga aylantirishga undaydi. Santyago qiyin vaziyatga tushganida, u nafaqat jismoniy chidamlilik, balki ichki iroda va matonat bilan harakat qiladi. Har bir qaror – baliqni tutish, kurashni davom ettirish yoki dam olish – uning ruhiy kuchi va qaror qabul qilish qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi. Bu yerda Xeminguey shuni ko‘rsatadiki, insonning tashqi yengilishi ichki g‘alabani kamaytirmaydi; aksincha, inson iroda va sabr bilan mag‘lubiyatdan kuchli chiqadi. Santyago hayotning mashaqqatli sinovlari orqali o‘zining ichki barkamolligini va insoniy qadr-qimmatini namoyon qiladi, bu esa fikrimizcha, har bir inson uchun ruhiy o‘rish va o‘z-o‘zini kashf etish timsoli sifatida xizmat qiladi.

Ernest Xeminguey bu asar orqali “insonni yo‘q qilish mumkin, lekin uni mag‘lub qilib bo‘lmaydi” degan g‘oyani ilgari suradi. Bu jumla G‘arb adabiyotida mavjud bo‘lgan ekzistensial ruhiyatni, ya’ni insonning yolg‘iz, ammo bardoshli mavjudot sifatidagi mohiyatini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Umuman olib qaraganda asarda ko‘p narsa sodir bo‘lmaydi, ammo o‘qilishi juda yengil va barchaga birdek tushunarli bo‘lgan bu asar e’tiborni tezda jalb qiladi. Bu yerda biz uchun eng kutilmagan narsa bu – asarning yakuni bo‘lgan deyilsa, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Nazarimizda, hamma narsa juda qayg‘uli tugashi kerak edi. Biroq bu ham yomon emas. Asardagi bu yakun cholni qahramonga aylantirmaydi, lekin u eng qimmatli narsasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgani sababli, u yutqazmaydi. Bu yerda chol oddiy odam va bu asarning go‘zalligi shunda, deb hisoblaymiz. Roman dunyo miqyosidagi buyuk asar. Uni o‘qish jarayonida keng qamrovli fikrlashga undovchi dialoglar mavjudligini payqash qiyin emas. Shu

sababdan ham asarni qayta o'qib tahlil qilganda, fikrlar xilma-xilligiga duch kelamiz. Birida yakun juda qayg'uli va depressiv bo'lsa, ikkinchisida esa mutlaq boshqa qarama-qarshi fikrlar – umid, ishonch va kuchga to'la qat'iyat yotadi. Shuni tushunishimiz mumkinki, asarda har bir buyum, har bir narsa ramziydir. Dengiz bu – hayot, qayiq – umr, baliq – orzu. Akulalar – dushmanlarimiz. Dengiz qayiqni chayqatganidek, ba'zan dovul bilan hamla qilsa, ba'zan sokin bo'lganidek, umrimiz davomida hayot bizga turli sinovlar, og'irlig-yu yengillik, xursandchiliklar beradi. Chol baliqni tutgach uni asrab qolish uchun jon olib, jon berganidek biz ham etishgan orzularimizni akula bo'lmish dushmanlarimizdan himoya qilishga tirishamiz. Kurashib daf qilishga urinamiz. Orzularimizga chang soluvchi akulalar esa har doim topiladi. Lekin siz o'zingizni kuchli va irodali hisoblasangiz, orzungizni mahkam ushlang va u akulalarning iflos tishlari orasida nimtalanishiga jim qarab turmang. Santyago chol singari qo'lingizda nimaiki bor hammasini ishga solgan holda mardonavor kurashing. Chunki siz bu orzuni chol singari uzoq vaqt, 87 kun kutgansiz...

Sharq adabiyotida insonning mag'lubiyatdagi g'alabasi ko'pincha ruhiy bardosh, sabr va ichki uyg'onish orqali ifodalanadi. Said Ahmadning "Jimjitlik" romani shunday g'oyani targ'ib qiladi: tashqi mag'lubiyat fonida insonning ruhiy qudrati saqlanadi, jimlik va ichki kurash orqali inson o'zini namoyon etadi. Romanda urushdan keyingi jamiyat, inson ruhining charchog'i va so'zsiz og'riq tasvirlanadi. Jimlik – qo'rquv emas, balki hayot zarbalari oldidagi sabr va ichki mulohaza. Qahramon o'z og'rig'ini tashqi dunyoga ko'rsatmaydi, lekin ichki ruhiy kuchini saqlab qoladi. Psixologik realizm va ichki monologlar orqali drammatizm yaratiladi, bu esa insonning ichki dunyosi, ichki kurashi va ma'naviy bardoshini aks ettiradi. Qahramon qiyin vaziyatdan chiqish uchun jimlikni va ruhiy chidamlilikni tanlaydi, bu esa uning mag'lubiyatdagi g'alabasini yanada chuqurlashtiradi.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Said Ahmad (1920–2007) "Jimjitlik" asarida inson ruhidagi sukut, iztirob va o'zini anglash jarayonini tasvirlaydi. Asarda qahramon jimjitlik orqali o'z o'tmishini, kechmishini eslaydi,

vijdoni bilan yuzma-yuz keladi. Bu jimjitlik – tashqi tinchlik emas, balki ichki to‘lqin. Yozuvchi shovqinsiz, ammo og‘riqli ichki dunyo orqali ruhiy yengish jarayonini ko‘rsatadi. Said Ahmad uchun jimjitlik – bu insonning o‘zini anglash, ruhiy poklanish, sabr va sukut orqali yuksalish manbayi g‘alabasidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, G‘arb va Sharq adabiyotida umumiylik va farqlarni quyidagicha:

Aspekt – G‘arb adabiyoti (Xeminguey), Sharq adabiyoti (Said Ahmad);

Kurash turi – tashqi kurash (inson – tabiat), ichki kurash (inson – o‘zi bilan);

Asosiy g‘oya – matonat va jasorat, sukut va sabr orqali yengish;

Asar ruhi – iroda va g‘urur, ruhiy iztirob va tozalanish;

Natija – jismoniy mag‘lubiyat, ruhiy g‘alaba, ruhiy sukut orqali yengish;

Uslub – minimalistik, realistik, lirik-psixologik.

Shunday qilib, G‘arb va Sharq adabiyotining buyuk namoyandalari ijodlari bir-biriga taqqoslanganda, Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlarida mag‘lubiyat tushunchasi turlicha bo‘lsa-da, insonning ichki g‘alabasi umumiy falsafiy mazmunga ega. Ernest Xeminguey Santyagoni tabiiy kuchlar bilan kurashda jismoniy va ruhiy iroda orqali g‘olib qiladi, Said Ahmad qahramonini esa ijtimoiy va psixologik sinovlar orqali sabr va jimlik bilan yuksaltiradi. Ikkala holatda ham qahramonlar tashqi mag‘lubiyatga uchrasa-da, ularning ichki dunyosi kuchayadi, qaror qabul qilish qobiliyati, iroda va matonat namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ikki adabiyotning yondashuvi turlicha bo‘lsa-da, inson ruhiy qudrati va g‘alabasini ko‘rsatish maqsadi bir xil. Bizning shaxsiy fikrimcha, bu ikki asarni bir-biriga taqqoslash orqali insonning ruhiy g‘alabasining universal mohiyati yanada ochib beriladi. Tashqi yengilish insonning ichki qudratini kamaytirmaydi, aksincha, qahramonlar og‘ir vaziyatlarda matonat va iroda bilan harakat qilganda, inson ruhining chidamliligi va ma'naviy yuksakligi yanada ravshan ko‘rinadi. Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlarida shaxsiy kurash, iroda va sabr insonni tashqi omillardan mustaqil qilib, ichki g‘alabaga erishish imkonini beradi.

Aslida Gʻarb va Sharq adabiyotida insonning magʻlubiyatdagi gʻalabasi tushunchasi bir-biriga yaqin falsafiy tushunchalar boʻlsa-da, mazmunan biri ikkinchiga muvofiq, bir xil qarashlarning ikkiki xil talqinidir. Har ikkala asarda ham qahramonlar tashqi magʻlubiyati fonida ruhiy gʻalaba turadi. Bu esa ularning sabri, irodasi, jimlik va maʼnaviy yuksakligida namoyon boʻladi. Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlari orqali shuni anglash mumkinki, insonning tashqi yengilishi ruhiy gʻalabani kamaytirmaydi, balki uni yanada yorqinroq koʻrsatadi. Har ikkala asar inson ruhiy qudratini va gʻalabasini turlicha, ammo chuqur falsafiy shaklda tasvirlaydi va Gʻarb hamda Sharq adabiyoti oʻrtasidagi umumiy kontseptual yaqinlikni ochib beradi.

Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlarida insoniyat uchun umumiy boʻlgan – magʻlubiyatdagi gʻalaba gʻoyasi oʻziga xos badiiy talqinda berilgan.

Santyago ham, “Jimjitlik”dagi qahramon ham hayot sinovlaridan oʻtadi, biroq magʻlub boʻlmaydi. Xemingueyda bu gʻalaba jasorat orqali, Said Ahmadda esa sukut va sabr orqali yuz beradi.

Ernest Xemingueyning “Chol bilan dengiz” hamda Said Ahmadning “Jimjitlik” asarlari Gʻarb va Sharq adabiyotlaridagi bir-birini toʻldiruvchi ikki badiiy tafakkur yoʻnalishidir. Har ikkisi insonni ruhiy jihatdan yuksaltiradi, uni bardosh, iroda va vijdon timsolida ulugʻlaydi. Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlarida insonning magʻlubiyatdagi gʻalabasi tashqi voqealar natijasidan koʻra, uning ichki chidamliligi, sabri va irodasi orqali namoyon boʻladi. “Chol va dengiz” va “Jimjitlik” qahramonlari ogʻir sinovlarga duch kelganida ham oʻz ruhiy kuchi bilan yuksak gʻalabaga erishadi. Bu gʻalaba insonning ichki dunyosining boyligi, sabr va matonati bilan oʻlchanadi. Qahramonlarning ogʻir vaziyatlardan chiqishi shuni koʻrsatadiki, haqiqiy magʻlubiyat tashqi yutqazishda emas, balki ruhiy barkamollikni yoʻqotishda yuz beradi. Ernest Xeminguey va Said Ahmad asarlari sabr va ichki chidamlilik insonning eng kuchli qudrati ekanini ochib beradi. Shu bilan birga, bu asarlar insonning ruhiy yuksalishini, ichki qudrati va maʼnaviy boyligini namoyon qiladi. Ogʻir vaziyatlar insonni mustahkamlaydi, uning ruhini yuksaltiradi va ichki gʻalabaga yetaklaydi. “Chol va dengiz” va

“Jimjitlik” romani o‘quvchiga hayotiy sinovlarda sabr, iroda va matonat bilan harakat qilishning ahamiyatini tushuntiradi. Natijada, inson tashqi mag‘lubiyat fonida ham ruhiy g‘alaba qila oladi. Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” va Said Ahmadning “Jimjitlik” asarlari nafaqat adabiy meros, balki hayotiy falsafiy dars sifatida, o‘quvchiga ichki kuch va insoniy qadriyatlarning cheksizligini anglashga yordam beradi. Shu jihatdan, har ikkala asarlar o‘z-o‘zidan insonning ruhiy g‘alabasini qadrlashga va hayotiy sinovlarga bardosh berishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмад, Саид. Жимжитлик: роман. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 135 б.
2. Аҳмедова Ф. Адабиётшуносликда экзистенциализм ва реализм. – Тошкент: Илм-фан, 2013. – 172 б.
3. Ислотов Т. Шарқ ва Ғарб адабиётини таққослаш. – Тошкент: Илм-фан, 2010. – 256 б.
4. Петрова А. Дунё адабиётида қаҳрамонларнинг ички дунёси. – Тошкент: Прогресс, 2007. – 76 б.
5. Расулов М. Ўзбек қисса ва романларида ички дунё таҳлили. – Тошкент: Шарқ, 2011. – 198 б.
6. Собиров Л. Адабиётшуносликда қаҳрамон ва мағлубият концепцияси. – Тошкент: Илм-фан, 2014. – 220 б.
7. Қодиров С. Ўзбек бадиий тафаккури ва инсон образлари. – Тошкент: Академнашр, 2009. – 240 б.